# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№2



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, fevral.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay’ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Oʻz.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General’s Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General’s Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH....40
**Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li**

TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI....46
**Allabergenov Sherzod Maksudbayevich**

BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI....51
**Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li**

O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI....55
**Mamanov Alisher Umbarovich**

ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI....60
**Xamdamova Gavxar Absamatovna**

SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI....65
**Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi**

IJTIMOIY OBYEKTLARDA QURILISH XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOYILLARI....68
**Gapparov Azim Qayumovich**

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH....72
**Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li**

O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIY BARQARORLIKKA TA'SIRI....75
**Xolmatova Asila Menglimurod qizi**

РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ....81
**Н.Т. Бекназарова**

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT....86
**Shaymatova Nargiza Ashurovna**

NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI....93
**Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich**

DIGITAL TWIN–BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS....99
**Nelyufar Umarovna Dadabayeva**

PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI....108
**Karimov Abdusamat**

АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ....115
**Бабаджанов Шухрат Атхамович**

"TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI"....120
**Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li**

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI....124
**Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI ........ 129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi

THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING ........ 134
Negmatov Nodir Nozimovich

O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI ........ 139
Aytiyeva Sevara

TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ........ 144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich

YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI ........ 149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ........ 155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li

POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH ........ 160
Rustamov Sheroz Oblokulovich

AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR ........ 164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li

MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH ........ 169
Feruza Nabieva

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH ........ 176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li

O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI ........ 183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li

O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI ........ 188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich

SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI ........ 198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li

SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI ........ 202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna

MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI ........ 208
Egamov Temur Muzaffarovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI ........ 213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI ........ 217
Achilova Firuza Kurbanovna

INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 222
Ergashev Olim

KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR ........ 227
**Amirov Zubaydulla Toir o'g'li**

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI ........ 233
**Isakjanova Saboxat Muhamedovna**

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........ 238
**Xakimov Uchkun Xamitovich**

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 242
**Mardanova Ra'no Isakovna**

XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL ........ 246
**Yakubov Temur G'anibekovich**

RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODELI ........ 250
**Ziyodullayev Qahramon**

"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 254
**Toshev Akmal Salimovich**

RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI ........ 261
**Madaminov Bekzod Allayarovich**

O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI) ........ 266
**Djumanova Rano Fayzullayevna**

OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI ........ 272
**Xo'jaxanov Ma'rufxon Xamidxonovich**

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI ........ 278
**Vafiyev Raxim Xalimjonovich**

INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 282
**Nigora Nurmatova**

BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI ........ 287
**Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li**

O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 291
**Allabergenova Nilufar Shermetovna**

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQARISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI ........ 298
**Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich**

"MINTAQA SANOATI SALOHIYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI" ........ 306
**Abdinazarov Xusan Shaymanovich**

BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI ........ 309
**Jabbarova Charos Aminovna**

ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH ........ 316
**Alikulov Samar Abdirashidovich**

O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASI RIVOJLANISHIDA FORSAYT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ........ 322
**Turdibekov Xasan Ibragimovich**

АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА ........ 329
**Камолова Феруза Кахрамоновна**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL ........ 333
**Olloyorova Kumushoy Ahmad qizi, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI ........ 339
**Kudiyarov Kishibay Ramatullaevich**

KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ TAJRIBASI ........ 343
**Iminova Nargizaxon Akramovna**

SUG'URTA KOMPANIYALARINING TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI BOSHQARISHDA RISKLAR VA RISK-MENEJMENTNING O'RNI ........ 350
**Xalikulova Shirin Utkir qizi**

BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR ........ 354
**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Xasanboyeva Muyassar Ubaydullayevna**

XUSUSIY KORXONALARDA KADRLAR MENEJMENTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 358
**Alimova Dildora Damirovna**

BANK TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI ........ 363
**Rajabov Oybek Panjievich**

O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT SANOATIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ........ 367
**Eshtemirova Anora Norboy qizi**

BOZOR KONYUNKTURASIGA MOS PIYOZ YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI ........ 371
**Sadikova Shohida Obidqul qizi**

HUDUDLARDA MAISHIY XIZMATLAR SOHASINI KLASTERLASH VA RESURS SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ........ 375
**Normurodova Zebo Eshmaxmatovna**

XUSUSIY VA KORPORATIV TUZILMALARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI HAMDA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI ........ 380
**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich**

YIRIK VA KICHIK BIZNES O'RTASIDA KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI ........ 385
**Nasirova Kamola Alimovna**

MOLIYAVIY HISOBOTLARNING QAROR QABUL QILISH JARAYONIDAGI IQTISODIY ROLI ........ 394
**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Yahyayeva Ra'no Raximovna**

DIRECTIONS FOR IMPROVING INVESTMENT POLICY IN THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY (EXPERIENCE OF UZBEKISTAN) ........ 400
**Khatamov Nurbek Achildiyevich, Sharifi Abdul Fatah**

DAVLATNING FISKAL VA MONETAR SIYOSATI UYG'UNLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH ........ 405
**Uralov Shavkat Maxramovich**

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BIZNES JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI ........ 410
**Yusubov Muzaffar Alimbayevich**

BANKLARDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONINING MIJOZLAR QONIQISH DARAJASIGA TA'SIRI ........ 414
**Ro'ziboyev Shuxrat Komilovich**

BOJ-TARIF SIYOSATI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY YO'NALISHLAR ........ 418
**Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li**

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHDA BOSHQARUV KADRLARINING KOMPETENSIYASI ........ 424
**Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich**

ZIYORAT TURIZMIDA DESTINATSIYA VA GEOAXBOROT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........................ 433
**Qosimov Jahongir Ro'ziboyevich, Suyunova Nilufar**

YEVROPA DAVLATLARIDAGI KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI VA ULARDAN O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI ........................ 440
**Pardayev Jamshid Muzaffarovich**

TASHKILOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA LOYIHALARINI BOSHQARISH ........................ 446
**Xasanov Odilxon Kaxxorovich**

O'ZBEKISTON TURIZM SANOATINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ........................ 450
**Kobilova Shozoda Timurovna, Isxakova Sarvar Ayubovna**

# O'ZBEKISTON TURIZM SANOATINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH





**Kobilova Shozoda Timurovna**
Zarmed universiteti dotsenti, i.f.n.

**Isxakova Sarvar Ayubovna**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston turizm sanoatining jahon turistik bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish masalalari strategik marketing yondashuvlari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida global turizm bozorida shakllanayotgan zamonaviy marketing konsepsiyalari, xususan, tajribalar iqtisodiyoti, destinatsiya marketingi va raqamli transformatsiyaning turizm sohasiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi. PESTLE tahlili, Porterning raqobatbardoshlik rombi va 7P marketing-miks modellari asosida Samarqand viloyatining turistik salohiyati baholanib, mavjud tizimli muammolar aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish, hududiy brendingni shakllantirish va raqamli marketing samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: strategik marketing, turizm raqobatbardoshligi, 7P marketing modeli, PESTLE tahlili, Porter rombi, raqamli transformatsiya, destinatsiya brendi, Samarqand, ziyorat turizmi.

Abstract. The article examines the issues of enhancing the competitiveness of Uzbekistan's tourism industry in the global tourism market based on strategic marketing approaches. The study provides a scientific analysis of modern marketing concepts emerging in the global tourism market, particularly the experience economy, destination marketing, and the impact of digital transformation on the tourism sector. Using PESTLE analysis, Porter's Diamond Model of competitiveness, and the 7P marketing mix model, the tourism potential of the Samarkand region was assessed and existing systemic problems were identified. Based on the research findings, practical recommendations were developed aimed at diversifying tourism products, forming regional branding, and improving the effectiveness of digital marketing.

Key words: strategic marketing, tourism competitiveness, 7P marketing model, PESTLE analysis, Porter's Diamond, digital transformation, destination branding, Samarkand, pilgrimage tourism.

Аннотация. В статье на основе стратегических маркетинговых подходов исследуются вопросы повышения конкурентоспособности туристической индустрии Узбекистана на мировом туристическом рынке. В ходе исследования проведён научный анализ современных маркетинговых концепций, формирующихся на глобальном туристическом рынке, в частности экономики впечатлений, маркетинга дестинаций и влияния цифровой трансформации на сферу туризма. На основе PESTLE-анализа, модели конкурентного ромба Портера и модели маркетинг-микса 7P была оценена туристическая потенциал Самаркандской области и выявлены существующие системные проблемы. По результатам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на диверсификацию туристического продукта, формирование территориального брендинга и повышение эффективности цифрового маркетинга.

Ключевые слова: стратегический маркетинг, конкурентоспособность туризма, модель маркетинга 7P, PESTLE-анализ, ромб Портера, цифровая трансформация, бренд дестинации, Самарканд, паломнический туризм.

## KIRISH

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida turizm sanoati eng tez rivojlanayotgan va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlardan biriga aylandi. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm xizmatlari global yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini shakllantirib, bandlik va hududiy rivojlanishda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston uchun ham turizm nafaqat madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega soha, balki iqtisodiy o‘sishni jadallashtiruvchi strategik tarmoq sifatida qaralmoqda. Davlat siyosati doirasida vizasiz rejimlarning joriy etilishi, infratuzilmaning rivojlanishi va turistik xizmatlar ko‘lamining kengayishi bu yo‘nalishda muhim qadam bo‘ldi. Biroq xalqaro turizm bozoridagi kuchli raqobat sharoitida mavjud resurslarning o‘zi yetarli emasligi amaliyotda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, turizm sohasida marketing boshqaruvining ilmiy asoslangan mexanizmlarini joriy etish, iste’molchi ehtiyojlariga yo‘naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish va hududiy brendingni shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekiston turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda strategik marketing texnologiyalarining rolini kompleks tadqiq etishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirish masalalari so‘nggi yillarda iqtisodiyot va marketing fanlarida ustuvor tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro turistik oqimlar tarkibining o‘zgarishi hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi turizmni boshqarishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu sababli mazkur tadqiqotda turizm marketingi, destinatsiya raqobatbardoshligi va strategik marketing texnologiyalariga oid ilmiy manbalar chuqur tahlil qilindi [6], [8].

Xizmatlar marketingi nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lgan P. Kotler turizm marketingini iste’molchi ehtiyojlari va kutishlariga mos qiymat yaratish jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, turizm mahsuloti moddiy mahsulotlardan farqli ravishda ko‘proq hissiy va tajribaviy xarakterga ega bo‘lib, marketing strategiyalari aynan mijoz tajribasini boshqarishga yo‘naltirilishi lozim. Kotler tomonidan ilgari surilgan marketing-miks konsepsiyasining 7P modeli xizmatlar sohasida, jumladan, turizmda samarali boshqaruv instrumenti sifatida keng qo‘llanilmoqda [1].

D. Buxalis tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar turizm sanoatida raqobat ustunligini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallifning ta’kidlashicha, zamonaviy turistik destinatsiyalar raqamli platformalar, onlayn bron qilish tizimlari va ma’lumotlar tahliliga asoslangan marketing qarorlarisiz xalqaro bozorda muvaffaqiyat qozona olmaydi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston turizm bozori uchun ham dolzarb bo‘lib, raqamli transformatsiyaning sustligi raqobatbardoshlikni cheklovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda [2].

Turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini baholash bo‘yicha eng mukammal konsepsiyalardan biri J. Ritchie va G. Crouch tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning konsepsiyasiga ko‘ra, destinatsiya raqobatbardoshligi tabiiy va madaniy resurslar bilan bir qatorda marketing boshqaruvi, institutsional muhit va inson kapitali sifati bilan belgilanadi. Mualliflar turizmni barqaror rivojlantirishda marketing strategiyalarining muhim rolini alohida ta’kidlaydi [3].

M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan “Milliy raqobatbardoshlik” nazariyasi turizm sanoatini tahlil qilishda keng qo‘llanilmoqda. Porterning “Diamond Model”i talab sharoitlari, ishlab chiqarish omillari, qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlar va firmalar strategiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi. Tadqiqotchilar ushbu modelni turizm sohasiga moslashtirib, marketing faoliyati mazkur omillarni uyg‘unlashtiruvchi asosiy mexanizm ekanligini asoslab bermoqda [4].

So'nggi yillarda "tajribalar iqtisodiyoti" (Experience Economy) konsepsiyasi turizm marketingida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Pine va Gilmore tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy sayyohlar oddiy xizmat emas, balki unutilmas tajriba sotib olishni afzal ko'radi. Shu bois turizm mahsulotlarini shakllantirishda interaktivlik, autentiklik va emotsional qiymat ustuvor bo'lishi lozim [5]. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida, ayniqsa, ziyorat va madaniy turizmni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

UNWTO hisobotlarida global turizm bozorida destinatsiyalar o'rtasidagi raqobat tobora kuchayib borayotgani qayd etilgan. Tashkilot mutaxassislarining fikricha, turizmda barqaror raqobatbardoshlikka erishish uchun davlat siyosati, xususiy sektor va marketing institutlari o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarur [6].

Middleton va hammualliflarining tadqiqotlarida turizm marketingida strategik rejalashtirish, brendlash va bozor segmentatsiyasining ahamiyati keng yoritilgan. Mualliflar xizmatlar sifatini oshirish va raqobat ustunligini ta'minlashda marketing kommunikatsiyalarining hal qiluvchi rolini asoslab beradi [7].

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham O'zbekiston turizm sanoatida marketing yondashuvlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ta'kidlanadi. Xususan, hududiy brending, raqamli targ'ibot va xizmatlar sifati masalalari hali ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Bu holat xorijiy ilmiy yondashuvlarni milliy sharoitga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi [10].

Shuningdek, davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida rivojlantirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, marketing mexanizmlarini takomillashtirish ushbu siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [9].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm sanoatining raqobatbardoshligi ko'p omilli kategoriya bo'lib, unda strategik marketing texnologiyalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mavjud ilmiy ishlarda umumiy nazariy yondashuvlar yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, ularni O'zbekiston hududiy xususiyatlariga moslashtirish va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Turizm marketingi va destinatsiya raqobatbardoshligi masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. P. Kotler turizm marketingini xizmatlar marketingining maxsus shakli sifatida talqin qilib, unda iste'molchi tajribasi va qiymat yaratish jarayonini markaziy o'ringa qo'yadi. D. Buxalis esa raqamli texnologiyalar turizm menejmentida asosiy raqobat ustunligini shakllantiruvchi omil ekanligini ta'kidlaydi.

J. Ritchie va G. Crouch tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko'ra, destinatsiya raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy va madaniy resurslarga, balki ularni boshqarish, marketing qilish va bozorga to'g'ri pozitsiyalash darajasiga ham bog'liq. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida ayniqsa dolzarb bo'lib, tarixiy merosning mavjudligi marketing mexanizmlari bilan qo'llab-quvvatlanmasa, kutilgan natijani bermasligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda M. Porterning milliy raqobatbardoshlik modeli O'zbekiston turizm sanoatiga moslashtirilib, talab sharoitlari, infratuzilma, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar va marketing strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi va quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tizimli va mantiqiy tahlil – turizm sanoatining umumiy holatini baholashda;

PESTLE tahlili – makroiqtisodiy va institutsional muhit omillarini aniqlashda;

7P marketing-miks modeli – xizmatlar marketingining asosiy elementlarini baholashda;

Benchmarking – O'zbekiston ko'rsatkichlarini mintaqaviy raqobatchilar bilan taqqoslashda;

Empirik tadqiqot – Samarqand shahridagi mehmonxonalar va turoperatorlar faoliyati misolida marketing auditini o'tkazishda.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston turizm sanoatining raqobatbardoshligini baholashda, avvalo, unga ta'sir etuvchi tashqi makroiqtisodiy omillarni tizimli tahlil qilish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda tadqiqot doirasida PESTLE tahlili qo'llanilib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarning turizm rivojiga ta'siri baholandi.

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun siyosiy va institutsional imkoniyatlar yetarli darajada mavjud. Xususan, vizasiz rejimlar geografiyasining kengayishi, davlat tomonidan turizm subyektlariga berilayotgan subsidiyalar va normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi sohaning barqaror rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, geosiyosiy beqarorlik sharoitida transport yo'nalishlarining o'zgarishi va logistika xarajatlarining ortishi salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodiy omillar tahlili xorijiy investitsiyalar oqimi va valyuta bozorining erkinlashuvi turizm sanoati uchun yangi imkoniyatlar yaratayotganini ko'rsatdi. nTexnologik omillar doirasida "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi, onlayn to'lov tizimlarining rivoji va raqamli xizmatlarning kengayishi ijobiy baholandin (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston turizm sohasi uchun PESTLE tahlil matritsasi[1]

| Omillar guruhi | Ijobiy ta'sirlar (Imkoniyatlar) | Salbiy ta'sirlar (To'siqlar) |
|---|---|---|
| Siyosiy (P) | Vizassiz rejimning kengayishi, davlat subsidiyalari | Geosiyosiy beqarorlik, transport yo'nalishlarining o'zgarishi |
| Iqtisodiy (E) | Xorijiy investitsiyalar, valyuta erkinlashuvi | Aviabilet va mehmonxona narxlarining o'sishi |
| Ijtimoiy (S) | Mehmondo'stlik an'analari, yosh kadrlar ulushi | Servis madaniyati va xorijiy tillar bilimining pastligi |
| Texnologik (T) | Raqamli strategiyalar, onlayn to'lovlar | GDS integratsiyaning sustligi, kiberxavfsizlik |
| Ekologik (L) | Ekoturizm va agroturizm salohiyati | Suv tanqisligi, chiqindilarni boshqarish muammosi |
| Huquqiy (E) | Qonunchilik bazasining mustahkamlanishi | Huquqiy mexanizmlarning murakkabligi |

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun marketing boshqaruvining institutsional mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Turizm xizmatlarining ichki samaradorligini baholash maqsadida tadqiqot doirasida Samarqand shahridagi mehmonxona xo'jaliklari faoliyati 7P marketing-miks modeli asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari mehmonxonalarning moddiy infratuzilmasi, dizayni va joylashuvi yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatdi. Ayniqsa, "Physical Evidence" va "Product" elementlari bo'yicha yuqori ballar qayd etildi.

Biroq marketing kommunikatsiyalari va inson kapitaliga oid ko'rsatkichlar nisbatan past baholandi. Xususan, targ'ibot faoliyati (Promotion) va xodimlar bilan bog'liq jarayonlar (People) eng zaif bo'g'inlar sifatida aniqlandi. Bu holat turistik xizmatlar qiymat zanjirida inson omilining yetarlicha strategik resurs sifatida baholanmayotganini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Samarqand shahridagi mehmonxonalar marketing auditi natijalari (5 ballik shkalada) [2]

| Marketing elementi | O'rtacha ball | Aniqlangan muammo |
|---|---|---|
| Product (Mahsulot) | 4.2 | Xizmatlarning bir xilligi |
| Price (Narx) | 3.5 | Dinamik narx siyosatining yo'qligi |
| Place (Taqsimlash) | 3.8 | Agregatorlarga yuqori qaramlik |
| Promotion (Targ'ibot) | 3.1 | Raqamli kontent sifati past |
| People (Xodimlar) | 3.4 | Kommunikatsiya ko'nikmalari sust |
| Process (Jarayon) | 3.7 | Check-in jarayonining uzoqligi |
| Physical Evidence | 4.5 | Dizayn va jihozlanish yuqori |

Mazkur natijalar turizm sanoatida marketingni faqat sotuv emas, balki mijoz tajribasini boshqarish vositasi sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi.

O'zbekiston turizm sanoatining ichki va tashqi omillarini kompleks baholash maqsadida SWOT tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalari mamlakatning boy madaniy-tarixiy merosi va xavfsizlik darajasining yuqoriligi kuchli tomonlar sifatida ajralib turishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, servis sifati notekisligi va raqamli marketingning sustligi raqobatbardoshlikni cheklovchi omillar hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston turizm sanoatining SWOT tahlili[3]

| Kuchli tomonlar | Kuchsiz tomonlar | Imkoniyatlar | Xavf-xatarlar |
|---|---|---|---|
| Boy tarixiy meros | Transport logistikasining qimmatligi | Ziyorat turizmi bozori | Mintaqaviy raqobat |
| Yuqori mehmondo'stlik | Servis sifati notekisligi | IT orqali personifikatsiya | Global iqtisodiy inqiroz |
| Xavfsizlik darajasi | Raqamli marketingning sustligi | Yagona mintaqaviy viza | Ekologik muammolar |

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirish uchun resursga asoslangan yondashuvdan marketingga asoslangan rivojlanish modeliga o'tish zarur. Shu bois, omnikanal marketingni joriy etish, tajriba turizmini rivojlantirish, revenue management tizimlarini qo'llash

1 Muallif ishlanmasi
2 Muallif ishlanmasi
3 Muallif ishlanmasi

va destinatsiya brendingni kuchaytirish O‘zbekiston turizm sanoatining xalqaro bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston turizm sanoatining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishda strategik marketing texnologiyalarining tutgan o‘rni va ahamiyatini kompleks ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tadqiqot jarayonida turizmni faqat tarixiy yoki tabiiy resurslarga tayangan holda rivojlantirish yetarli emasligi emas, balki ushbu resurslarni bozorga samarali olib chiqish uchun zamonaviy marketing yondashuvlarini yanada chuqurlashtirish muhimligi metodik jihatdan asoslab berildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston turizm sanoati salohiyat nuqtayi nazaridan Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi o‘rinlardan birini egallash imkoniyatiga ega. Boy madaniy-tarixiy meros, ziyorat turizmi resurslari, nisbatan barqaror siyosiy muhit va milliy mehmondo‘stlik an’analari mamlakatning asosiy qiyosiy ustunliklari hisoblanadi. Mazkur ustunliklarni yanada yuqori iqtisodiy samaraga aylantirish uchun marketing boshqaruvini institutsional darajada mustahkamlash, raqamli marketing instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish hamda hududiy brending tizimini tizimli shakllantirish istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilandi.

PESTLE tahlili natijalari O‘zbekiston turizm sohasida siyosiy va huquqiy imkoniyatlar mavjudligini, davlat tomonidan turizmni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini ko‘rsatdi. Iqtisodiy va texnologik omillar, jumladan transport logistikasini optimallashtirish, global bron qilish tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish hamda kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni kengaytirish orqali raqobatbardoshlikni sezilarli darajada mustahkamlash mumkinligi prognoz qilindi. Bu esa turizm sanoatini rivojlantirishda infratuzilmaviy choralarni marketingga asoslangan boshqaruv mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida 7P marketing-miks modeli asosida o‘tkazilgan empirik tahlillar Samarqand viloyati misolida turistik xizmatlar sifati yuqori ekanligini tasdiqladi. Shu bilan birga, “Promotion” (targ‘ibot) va “People” (xodimlar) elementlarini yanada kuchaytirish orqali xizmat ko‘rsatish samaradorligini va mijozlar qoniqish darajasini oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Bu esa turizm sanoatida inson kapitalini rivojlantirish va kommunikatsiya strategiyalarini kengaytirish istiqbolda yuqori natijalar berishini ko‘rsatadi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar, vizual kontent va raqamli storytelling imkoniyatlarini faol joriy etish O‘zbekistonning xalqaro brend sifatidagi tanilganligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Porterning milliy raqobatbardoshlik modeli hamda Ritchie–Crouch konsepsiyasi asosida olib borilgan tahlillar turizm sanoatida raqobatbardoshlik resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv sifati va strategik marketing yondashuvlariga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Marketing texnologiyalari talabni shakllantirish, destinatsiya imijini mustahkamlash va iste’molchi tajribasini boshqarish orqali barqaror raqobat ustunligini ta’minlashda asosiy instrument sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston turizmini resursga asoslangan modeldan marketingga asoslangan rivojlanish modeliga bosqichma-bosqich transformatsiya qilish istiqbolli strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan strategik tavsiyalar turizm sanoatini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega. Omnikanal marketingni joriy etish, raqamli platformalar orqali sotuvlarni kengaytirish, “tajribalar iqtisodiyoti” konsepsiyasi asosida turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish hamda hududiy destinatsiya brendlarini shakllantirish orqali xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligi prognoz qilinadi. Shuningdek, revenue management tizimlarini keng joriy etish mehmonxonalar va turoperatorlar faoliyatida narx siyosatini moslashuvchan boshqarish imkonini yaratib, iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari O‘zbekiston turizm sanoatining barqaror rivojlanishi va xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash strategik marketing texnologiyalarini tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Marketing boshqaruvini takomillashtirish, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish orqali turizm tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini o‘rta muddatli istiqbolda 25–30 foizga oshirish imkoniyati mavjudligi ilmiy prognoz sifatida asoslandi.

Mazkur tadqiqot natijalari turizm sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, shuningdek, turizmni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi davlat va xususiy sektor vakillari uchun amaliy va metodologik ahamiyat kasb etadi. Kelgusida hududlar kesimida chuqurlashtirilgan empirik tadqiqotlar o‘tkazish hamda raqamli marketing samaradorligini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish ushbu yo‘nalishning istiqbolli ilmiy rivojlanish vektori sifatida qaraladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Kotler, P., Bowen, J. T., & Makens, J. (2021). Marketing for Hospitality and Tourism. 8th Edition. Pearson Education.
2. Buhalis, D. (2022). Information Technology for Strategic Tourism Management. Pearson Education.

3. Ritchie, J. R. B., & Crouch, G. I. (2010). The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. CABI Publishing.
4. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
5. Pine, B. J., & Gilmore, J. H. (2019). The Experience Economy. Harvard Business Review Press.
6. UNWTO. (2024). International Tourism Highlights. World Tourism Organization.
7. Middleton, V. T. C., Fyall, A., Morgan, M., & Ranchhod, A. (2018). Marketing in Travel and Tourism. Routledge.
8. OECD. (2020). Tourism Trends and Policies. OECD Publishing.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-238-son qarori // https://lex.uz/ru/docs/-6549286
10. Xudoyberdiyev, S., & Karimov, B. (2022). O‘zbekistonda turizm xizmatlarini rivojlantirishda marketing strategiyalarining o‘rni. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №4.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 2**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz